

ODAM HID IZLARINI TADQIQ ETISH VA EKSPERTIZA TAYINLASH MASALALARI

Yo'lchixonova Sadoqatxon Abdumajit qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10056947>

Annotatsiya: ushbu maqola doirasida odam hid izlarini tadqiq etish bilan bog'liq jarayonlar o'rganildi. Odam hid izlarini aniqlashda ekspertiza tayinlashga doir barcha holatlar batafsil bayon etildi. Hid izlarini tanlab olish bosqichlari bayon etildi.

Kalit so'zlar: odorolog, odorologik tadqiqot, hid izlarini solishtirish, tekshirilayotgan shaxslar, tanib olish ekspertizasi.

Bizga ma'lumki, odorologik tadqiqotlarning predmeti hodisa sodir bo'lgan joydagi obyektlarda qoldirib ketilgan hid izlari hisoblanadi. Muayyan obyektlarni identifikatsiya qilish, uning muayyan shaxs yoki narsaga tegishli ekanligini aniqlash uchun, yuqorida tanishgan qoidalarga amal qilgan holda hid namunalari olinadi.

Tekshirilayotgan shaxslardan hid izlarini solishtirish uchun hid namunalari oshkora tarzda, JPKda belgilangan qoidalarga asosan olinadi. Tekshirilayotgan shaxslar toifasiga quyidagilar kirishi mumkin:

- Tergov yoki surishtiruv olib borilayotgan jinoyatni sodir qilishda ayblanyotgan yoki gumon qilinayotgan shaxslar;
- Jabrlanuvchilar va hodisa sodir bo'lgan joydagi shaxslar;
- Ushbu jinoyatga aloqadorlikda gumon qilinayotgan boshqa jinoyati uchun ushlangan shaxslar¹.

Tajribalar uchun hid namunalari olish maqsadida hodisa sodir bo'lgan joyda hid izlarini namunalari olmagan boshqa odorolog jalb qilinishi kerak va ushbu odorolog ham kelgusidagi hid tadqiqotlarida ishtirok eta olmaydi. Ushbu choralarda odorologning hid izlari ayni bir paytda hodisa sodir bo'lgan joydagi hid izlariga, tekshirilyotgan shaxslardan hid izlarini solishtirish uchun olingan hid namunalari, itlarning hid namunalari aniqlash eksperimentidagi nazorat hidlariga aralashib ketmasligi uchun qo'llaniladi.

Har qanday holda va maqsadda olinayotgan hid izlari namunalari ular asosida bajariladigan kelgusi tadqiqotlarga yaroqli bo'lishi lozim. Ushbu talablar quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- Hid namunasining aniq tekshirilyotgan shaxsdan olinganligi;
- Konsentratsiya darajasining yetarliligi;
- Tekshirilyotgan shaxsning tanasidan olingan hid namunalariida begona hidlarning yo'qligi²;

Hid izlarini solishtirish uchun tekshirilyotgan shaxslarda hid namunalari olish jarayonida xolislar ham ishtirok etishi lozim. Ularning ushbu jarayonlardagi ishtiroki olingan hid

¹ Старовойтов, В. И. Становление судебно-криминалистического исследования запаховых следов человека / В. И. Старовойтов, М. Г. Пименов // Роль и значение деятельности Р. С. Белкина в становлении современной криминалистики: материалы междунар. науч. конф. (к 80-летию со дня рождения Р. С. Белкина). – М., 2002. – С. 309–313.

² Старовойтов, В. И. Специальные знания и средства в судебной экспертизе пахнущих следов человека / В. И. Старовойтов // Эксперт-криминалист. – 2010. Стр. 25

namunalarning manbaasi, namunalar olishning to'g'ri o'tkazilganligi va namuna olish natijalarini protokolda to'g'ri aks ettirilganligini tasdiqlash uchun kerak.

Hid izlarini solishtirish uchun tekshirilyotgan shaxsdan hid namunalarini olish ushbu shaxsga tergovchining ushbu harkatni o'tkazish to'g'risidagi qarori o'qib berishdan boshlanadi va tekshirilyotgan shaxsga ushbu harakatning mazmuni tushuntiriladi.

Odatda hid izlarini solishtirish uchun olinayotgan namunalar ifloslanmagan, boshqa hid manbalar (atir, dezodorant, boshqa odam hidlari) aralashmagan teri qismidan olinadi. Shuningdek, tekshirilyotgan shaxsdan olinayotgan hid namunasi sterillangan dokaga olingan uch to'rt tomchi qon (quruq bo'lsa ham qabul qilanadi) ko'rinishida ham taqdim qilinishi mumkin. Agar yuqorida ko'rsatilgan usullar bilan hid namunasi olishning iloji bo'lmasa, quyidagi usulda olinadi. Tekshirilyotgan shaxsdan solishtirish maqsadida hid namunasi olish uchun unga odorologik qutida tayyor turadigan bankalarning ichidan adsorbentni olib, shimining beliga qistirishi yoki boshqa kiyimining tanaga yopishib turadigan qismiga qo'yish taklif qilinadi.

Adsorbent tergov harakati ishtrirokchisi yoki mutahassis tomonidan pinset yoki kornsang vositasida qo'yilishi ham mumkin. Hid namunalarini olish hodisa joyidan olingan hidlar izlari tananing qaysi qismidan qoldirilgan deb taxmin qilingan bo'lsa, osha joydan olish maqsadga muvofiq. Adsorbent tanada 30 daqiqadan kam bo'lmagan muddatda ushlab turilishi, adsorbent tanaga yaxshi tegib turganligini nazorat qilib turish va shaxs o'zining shaxsiy kiyimida bo'lishi kerak. Aks holda hid namunalarini solishtirish uchun yaroqsiz bo'lishi mumkin. Jarayon yakunida adsorbent qayta bankaga joylanadi va qopqog'i yaxshilab yopiladi.

Ushbu harakatlar davomida yuqorida tanishganimizdek, hodisa joyidan hid namunalarini olish qoidalariga amal qilinadi. Ayni paytda tekshirilyotgan shaxsdan hodisa sodir bo'lgan joyda qoldirilgan hid izlariga o'xshash holatda etalon hid namunalarini ham olinadi. Etalon hid olish jarayonida shaxs bilan muayyan predmetning kontakt vaqti vaziyatdan kelib chiqib belgilanadi³.

Hid izlari qachon paydo bo'lganligi, uning xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar, hid izlarining odorologik tadqiqotlar uchun yaroqliligi laboratoriya sharoitida aniqlanadi. Buning uchun, hid izlari qanday paydo bo'lganligi haqidagi dastlabki taxminlarga asoslangan holda, tekshirilyotgan shaxsdan o'zining hid namunasi model narsa buyumda qoldirishi so'raladi. Ushbu model narsa-buyumda qoldirilgan hid izi orqali hodisa sodir bo'lgan joyda olingan hid izining vaqti, qancha qismi yo'qolganligi taxmin qilinadi.

Tajriba tariqasida olinayotgan hid namunalarini ham hodisa sodir bo'lgan joyda olingan hid namunalarini olish qoidalari asosida olinadi. Agar hid izlari namunalarini yopiq binolarda olingan bo'lsa, tekshiriladigan odamdan ham namuna hidlar yopiq binoda olinadi. Shuningdek, tajriba uchun tekshirilyotgan shaxsdan olingan hid namunalarini uchun ham bayonnoma tuziladi va tekshirilyotgan shaxs, mutahassis, xolis va tergovchi tomonidan imzolandi.

Solishtirish tajribasi uchun gumon qilinayotgan shaxsdan hid namunalarini olishda asosan quyidagi xatolarga yo'l qo'yiladi:

- 1) tekshirilyotgan shaxsdan hid namunalarini noto'g'ri olish;
- 2) hid namunalarini olishda sterillash qoidalariga amal qilinmasligi;

³ Панфилов П. Б. Основные принципы обеспечения достоверности исследований запаховых следов человека с использованием собак-детекторов в судебной экспертизе / П. Б. Панфилов. – М.: Юрлитинформ, 2007. – 264 с.

3) hodisa sodir bo'lgan joydan va tekshirilyotgan shaxsdan hid namunalari bir shaxs tomonidan olinishi⁴.

Yuqoridagi xatolarni oldini olish uchun tergov harakati ishtirokchilaridan muayyan qoidalarga amal qilish talab qilinadi.

Odatda hodisa sodir bo'lgan joydan va shaxsdan olingan hid namunalarini odorologik identifikatsiyasi 24 soatdan keyin o'tkazish tavsiya qilinadi. Bu muddat davomida hidlar hidlarni tanib olish ekspertizasi o'tkaziladigan xona haroratiga moslashadi.

Hid izlarini tanib olish uch bosqichda amalga oshiriladi. Bular tayyorgarlik, solishtirish, baholash bosqichlari.

Tayyorgarlik bosqichida tanib olishning ishonchliligiga ta'sir qiladigan, uning natijalari va baholanishi salbiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillar o'rganilgan va choralar ko'rilgan bo'lishi lozim. Tanib olish obyektlari, texnik jihozlarning sozligi, tanib olish ekspertizasiga tanlangan itning tayyorligi o'rganiladi. Ushbu ekspertizada ishtirok etishi lozim bo'lgan shaxslarning kelganligi kelmaganligi aniqlashtiriladi. Tanib olish ekspertizasining obyektlari ya'ni hid izlarining ayrim xussiyatlari, qachon olinganligi, kelib chiqishi, hid izning hodisa sodir bo'lgan joyda qoldirilgan vaqti, hid izlari namunalrini olish, konservalash va saqlash sharoitlari tahlil qilinadi. Yuqoridagi tahlil natijalariga muvofiq, tanib olish ekspertizasi uchun neytral hid obyektlar tanlab olinadi. Ushbu hid obyektlari asosiy hid izlari namunalari hidi bo'yicha katta farq qilmasligi lozim. Yuqoridagi talablarni qondirishning eng yaxshi usuli bu hid izlari namunlari, nazorat hidlari namunalari va tekshirilyotgan shaxsdan olingan hid namunalari bir xil xususiyatga ega adsorbetlarga olish va bir xil sharoitlarda saqlashdir. Shuningdek, hid izlari namunalari tanib olish ekspertizasida itlar tomonidan tanib olishning ishonchligini ta'minaydigan tanlash, kuzatish, sinab ko'rish kabi usul va vositalar ishlab chiqilgan.

Solishtirish tadqiqotlari bosqichida tepada tanishgan odorologik identifikatsiyaning tergov harakati ishtirokchilari tomonidan tanib olish obyektlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqni aniqlashda kerak bo'ladigan barcha metod va vositalari qo'llaniladi. Bunda tayyorgarlik bosqichida, itlar yordamida tanib olish jarayonida olingan ma'lumotlarga asoslaniladi.

Baholash bosqichida taqdim qilingan barcha obyektlar, ularning xususiyatlari, itlarning hid izlarini tanib olishda o'zini tutishi, xullas tayyorgarlik va solishtirish bosqichidagi barcha ma'lumotlar tahlil qilinadi va hid izlari va tekshirilyotgan shaxsdan olingan namunalarning o'xshash yoki farqli ekanligi haqida yakuniy xulosa chiqariladi. Bunda hid izini tanlab tekshirilyotgan itning holati kinolog tomonidan baho beriladi.

Odorologik ekspertiza maxsus jihozlangan laboratoriyada, imkoni qadar begona moddalar zarralaridan xoli, itlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan, xona harorati +20 gradus atrofidagi, havoning nisbiy namligi 60–80%ni tashkil qiladigan sharoitda o'tkaziladi⁵.

Tajriba o'tkazilyotgan xona polidagi raqamlangan nuqtalarga oldindan tayyorlangan hodisa joyidan olingan va yordamchi tajriba uchun olingan hid namunalari solingan 8–10 ta shisha banka bir-biridan bir metr uzoqlikda joylashtiriladi. Bu odorologik obyektlarning solishtirish qatori deb nomlanadi. Yordamchi hid namunalari yuqorida tanishgan qoidalarga asoslangan va

⁴ Панфилов П. Б. Основные принципы обеспечения достоверности исследований запаховых следов человека с использованием собак-детекторов в судебной экспертизе / П. Б. Панфилов. – М.: Юрлитинформ, 2007. – 264 с.

⁵ Старовойтов, В. И. Специальные знания и средства в судебной экспертизе пахнущих следов человека / В. И. Старовойтов // Эксперт-криминалист. – 2010. Стр. 25.

ishga aloqador bo'lmagan shaxslarning hodisa sodir bo'lgan joydan olingan hid izlari obyektlariga o'xshash model ashyolarda qoldirgan hid izlari hisoblanadi. Itni solishtirish qatorida olib yurgan kinolog ushbu bankalardan qaysi bir haqiqiy tekshirilyotgan hid ekanligini ishora qilishini oldini olishi uchun, bankalarga yopishtilgan qog'ozlar ko'rinmaydigan qilib metal qalpoqchalar kiygizib qo'yiladi.

Ushbu tajribada maxsus o'rgatilgan itlar yordamida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda odorologik identifikatsiyada xizmat itlaridan foydalanish texnik qurilmalardan ko'ra bir necha ustunliklarga ega. Birinchidan itlar individual hidlarni aniqlay oladi. Ikkinchidan, bizga ma'lumki, hodisa joyidan olingan hid izlari namunalari boshqa hidlar bilan diffuziya ta'sirida aralashganligiga qaramay, itlar tekshirilyotgan odamning hidini aniqlash imkoniyatiga ega.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Tezkor-qidiruv faolyati to'g'risidagi qonun
4. Салтевский, М. В. Криминалистическая одорология / М. В. Салтевский. — Киев, 2000. — 41 с.
5. Безруков.В.В., Винберг А.И., Маёров М.Г., Тодоров Р.М., Новое в криминалистике/ Стр.74, 1965.
6. Криминалистика. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018, –515 bet.
7. Sud ekspertizasi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: IIV akademiyasi. 2012, – 323 bet.
8. Sud ekspertizasi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2018, –352 bet.
9. Винберг, А. И. Криминалистическая одорология при раскрытии убийств / А. И. Винберг // Раскрытие тяжких преступлений против личности: материалы науч.-практ. конф. – М., 1973. – Ч. 2. – С. 31–34.
10. Строгович.М.С. О криминалистической одорологии/Вопросы борьбы с преступностью. Иркутск: Иркутский госуниверситет, Стр. 85 1970.
11. Федоров, Г. В. Одорология: запаховые следы в криминалистике / Г. В. Федоров. – Минск, 2000.